

O'QITUVCHILARNI TA'LIMY QADRIYATLAR ASOSIDA TAYYORLASH

Nazarov Abdulla Abduvaxob o'g'li

Termiz davlat universiteti texnologik ta'lim kafedrası o'qituvchisi.

e-mail: abduvanazarov30@gmail.com.

Annotatsiya: *Maqolada bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida muhim ta'limiy qadriyatlar, ularning psixologik-pedagogik jihatlari haqida hamda bo'lajak o'qituvchining ijtimoiy faolligi nimalarga yo'naltirilishi, nazariy xususiyatga ega va zamonaviy ta'limiy qadriyatlar xususida so'z boradi va bu jarayonda o'qituvchilarni ta'limiy qadriyatlar asosida tayyorlashda nimalarga e'tibor berishi zarurligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'limiy qadriyatlar, psixologik-pedagogik jihatlari, didaktik tamoyillar, interfaol metodlar, pedagog kadr, zamonaviy metodologiya, konseptual yondashuvlar, mantiqiy-psixologik yondashuv, intellektual-ijodiy faoliyat, profессиogramma, kasbiy bashorat - oldindan «ko'ra bilish», individuallik.*

Аннотация: *В статье рассматриваются важные образовательные ценности в процессе подготовки будущих учителей, их психолого-педагогические аспекты, а также направления социальной активности будущего учителя, теоретические и современные образовательные ценности и информация о том, на что обращать внимание. для подготовки учителей на основе образовательных ценностей в процессе.*

Ключевые слова: *образовательные ценности, психолого-педагогические аспекты, дидактические принципы, интерактивные методы, педагогический состав, современная методология, концептуальные подходы, логико-психологический подход, интеллектуально-творческая деятельность, профессиограмма, профессиональное прогнозирование - заранее знать », индивидуальность.*

Annotation: *The article discusses the important educational values in the process of training future teachers, their psychological and pedagogical aspects, as well as the direction of social activity of the future teacher, theoretical and modern educational values. and information on what to look for in the training of teachers based on educational values in the process.*

Keywords: *educational values, psychological and pedagogical aspects, didactic principles, interactive methods, pedagogical staff, modern methodology, conceptual approaches, logical-*

psychological approach, intellectual-creative activity, profессиogram, professional prediction - in advance to know », individuality.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida muammoning mavjud holatini o'rganish va tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelishga imkon berdi: ta'limiy qadriyatlar pedagog kadrlarni tayyorlash hamda ularning kasbiy malakalarini takomillashtirish maqsadida pedagogika oliy o'quv yurtlarida alohida mavzu sifatida o'rganilmaydi; pedagogika oliy o'quv yurtlari ta'limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlar tayyorlashga oid tavsiyalarga muhtojdirlar.

Quyida muhim ta'limiy qadriyatlar, ularning psixologik-pedagogik jihatlari ochib beriladi:

- zamonaviy ta'lim mazmuni, uni takomillashtirishning metodologik va nazariy yo'nalishlari;

- bo'lajak o'qituvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasiga qo'yiladigan talablar, malakali pedagog kadrlarni sifatli tayyorlashga imkon beruvchi omillar va ushbu holatni yorituvchi ko'rsatkichlar;

- shaxsiy-kasbiy sababiylik omili;

- didaktik tamoyillar;

- zamonaviy ta'lim shakli, metod, vositalari, tizimi, texnologiyasi va asosiy elementlari; zamonaviy pedagogik texnologiyalarning turlari, interfaol metodlar;

- malakali pedagog kadrlarni tayyorlashning eng ilg'or tashkiliy shakl, metod va usullari;

- bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy tizimi, ma'ruza turlari, ularni tashkil etishga qo'yilgan talablar;

- malakali pedagoglarni tayyorlash jarayonida talabalarning faolliklarini oshirishga xizmat qiluvchi, ularni intellektual-ijodiy faoliyatga yo'naltiruvchi suhbat, bahs-munozara, bellashuv hamda o'yin texnologiyalaridan foydalanish;

- bo'lajak o'qituvchilarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyati, uni tashkil etish texnologiyasi; talabalarning ilmiy ishlariga qo'yiluvchi talablar.[1]

Bo'lajak o'qituvchining ijtimoiy faolligi quyidagilarga yo'naltiriladi: ta'lim jarayonida an'anaviy milliy qadriyatlarga tayangan holda talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash; ularning o'z-o'zini takomillashtirib borishlari uchun sharoit yaratish.

Nazariy xususiyatga ega ta'limiy qadriyatlar quyidagilardan iborat: zamonaviy ta'lim mazmuni, uning xususiyatlari va natijalariga qo'yiluvchi talablar; «o'qitish-o'rganish» tizimida tashkil etiluvchi didaktik munosabatlar, uning g'oyalari, tamoyillari, ta'limni tashkil etishga konseptual yondashuvlar; zamonaviy ta'lim yo'nalishlari (xususiyatlari), insonparvarlashtirish, standartlashtirish, ko'p imkoniyatlilik, axborot berish, individuallashtirish, muntazamlilik, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga asoslanganligi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash mazmunini tubdan yangilashga quyidagi metodologik omillar yordam beradi:

- ta'limning zamonaviy metodologiyasi, xususan, O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida yaratilgan oliy pedagogik ta'lim konsepsiyalari, davlat ta'lim standartlari, professiogrammalar;

- jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishi, ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlari, jamiyat ijtimoiy hayoti;

- ilm-fan va ishlab chiqarish yutuqlarining ta'lim mazmunida aks etishi; ta'lim, fan va amaliyot birligi;

- kasbiy-pedagogik vazifalarining takomillashtirilganligi;

- fan, shu jumladan, pedagogika fanining taraqqiyoti;

- Sharq mutafakkirlari va xalq pedagogikasi g'oyalarining ustuvorligi;

- milliy va xorijiy mamlakatlar pedagogikasi erishgan yutuqlar;

- ta'lim va tarbiya jarayoniga majmuaviy, tizimli, mantiqiy-psixologik yondashuv, shuningdek, talabalar idrok etish, intellektual-ijodiy va tadqiqotchilik faoliyatining tashkil etilishiga alohida e'tibor berish;

- ta'lim jarayonida bilim olish, rivojlanish va tarbiya jihatlarining o'zaro aloqalarini kuchaytirish, ta'lim jarayonida tarbiyaning ustuvorligi;

- zamonaviy ta'lim mazmunining yirik axborotlar hajmiga egaligi;

- ta'lim mazmunining bo'lajak mutaxassis tomonidan tashkil etiluvchi faoliyati mazmuni va tuzilishiga mos kelishi;

- o'quvchining ta'lim jarayonining eng yetakchi sub'ekti va ob'ekti ekanligi;

- bo'lajak mutaxassis shaxsi, uning har tomonlama shakllanishi hamda barkamol rivojlanishiga e'tiborning qaratilishi;

- zamonaviy o'qituvchi modeli, uning shaxsi va faoliyatiga qo'yiluvchi talablar, mutaxassislik ko'rsatkichlari va o'lchovlaridan xabardorlik[2]

O'quv dasturlarini, o'quv rejalarini, avvalo psixologiya, pedagogika va xususiy fanlar metodikasi, chunonchi, ijtimoiy, gumanitar va tabiiy fanlar bo'yicha yaratilgan va yaratilayotgan o'quv dasturlari mazmunini yangilash maqsadga muvofiqdir.

Yangilangan ta'lim mazmuniga muvofiq bo'lajak o'qituvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlari darajasiga qo'yilayotgan talablarni takomillashtirishga e'tiborni qaratish zarur.

Ayni o'rinda zamonaviy o'qituvchi tomonidan puxta o'zlashtirilishi talab etilayotgan tushuncha (bilim)lar xususida so'z yuritamiz. Ular quyidagilardan iborat:

- zamonaviy ta'lim konsepsiyalari, psixologiya, pedagogika hamda kasb-hunar ta'limi mohiyatini yorituvchi axborot xizmatlari;

- idrok etish faoliyatini yo'lga qo'yish shartlari, omillari;

- zamonaviy o'qituvchi (pedagog)ning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, emotsional va umumiy pedagogik madaniyati, ijtimoiy-pedagogik faoliyati, mahorati hamda «Men» konsepsiyasiga qo'yiluvchi talablar;

- pedagogik texnologiyalar borasidagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash;

- pedagogik maqsadlarga erishish uchun mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish;

- natijalarning samarali bo'lishini ta'minlovchi pedagogik texnologiyalarning maqbul metod va usullarini tanlay olish.[3]

Mavjud shart-sharoitlarga muvofiq pedagogik harakatlarni bajarishda o'ziga xos mahorat talab etiladi. Xususan: ko'nikmalar; o'quv materiallarining mazmuni bilan tanishib chiqish, eslash yoki bevosita qayta tiklashga yo'naltirilgan harakatni faollashtirish; munosabatlar va faoliyat davomida (tabiiy va maqsadga muvofiq

ravishda) amalga oshiriladigan ijtimoiy tajribani egallash jarayoni va «Men» konsepsiyasining dolzarblashtirilishi; pedagogik jarayonda o'qituvchi (boshqaruvchi) xulqining namoyon bo'lishi.

Mutaxassislik qobiliyatlarini aniqlash pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatli tashkil etilishi va yanada rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. Ular shaxs rivojlanishning natijalari bo'lib, ma'lum pedagogik faoliyatni tashkil etish jarayonida kuzatiladi. Bo'lajak o'qituvchilar pedagogik usul va uslublarni tez, mustahkam, oson va chuqur egallab olishlari kerak (agarda talaba tanlagan kasbiga qiziqadigan bo'lsa, ayniqsa yaxshi o'zlashtiradi). Shu bilan birga muayyan qobiliyatning o'zi turli pedagogik faoliyatlarning asosiy sharti bo'lishi mumkin (chunonchi, aqliy salohiyat).

Bo'lajak o'qituvchining qobiliyatlari o'zida individual xususiyatlarini namoyon etadi.

Muhim ahamiyatga ega bo'lgan qobiliyatlar sirasiga quyidagilar kiradi:

- pedagogik sezgirlik, kasbiy bashorat - oldindan «ko'ra bilish», pedagogik taxmin qilish;
- faol ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil eta olish;
- «Men» konsepsiyasini qadriyat sifatida tan olish va unga nisbatan ongli munosabatda bo'lish;
- shaxsiy va kasbiy o'z-o'zini takomillashtirish talabi.

Shunday qilib, pedagogik ta'limning asosiy qadriyati sifatida bo'lajak o'qituvchi shaxsi, uning shakllanishi, rivojlanishi va takomillashuviga sabab bo'luvchi omillar e'tirof etiladi[4]

Zamonaviy ta'limiy qadriyatlar majmui quyidalardan iborat:

Ta'lim-tarbiya jarayonida talaba faolligini ta'minlashga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalar.

1. Talaba (o'quvchi) shaxsining ta'lim jarayonidagi yetakchi mavqei, uning ta'lim tarbiya jarayonining asosiy sub'ekti sifatida tan olinishi, shuningdek, uning shaxsini hurmat qilishga bo'lgan ijtimoiy talabning qaror topishi.

2. Yangilangan ta'lim mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvor o'rin tutishi.

3. Ta'lim jarayonining insonparvar va demokratik tamoyillari.

Uzluksiz ta'limning har bir bosqichida talabalarda ma'lum kasbiy hamda shaxsiy sifatlar tarbiyalanadi. Talaba shaxsining faolligi yuzaga keltiriladi. Ushbu jarayon ana shu xususiyatiga ko'ra rivojlantiruvchi ta'lim deb ataladi. Ayni o'rinda ta'lim jarayonini takomillashtirish, talabalarda mustaqil bilim olishga xizmat qiluvchi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy jihatdan puxta tayyorgarlikka ega bo'lishlari ta'lim samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Bizning nazarimizda bo'lajak pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarlik ko'rsatkichlari quyidagi holatlar bilan aniqlanadi: bo'lajak o'qituvchilar tomonidan o'zlashtirilgan kasbiy bilimlarning sifati, ularda zaruriy ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajasi; ularning ma'naviy-axloqiy qiyofasi; ijodkorlik xislatiga egaliklari, pedagogik faoliyatni tashkil etishga nisbatan ijodiy yondasha olishlari; o'zi ustida doimiy izlanishlar olib borish ko'nikmalarining shakllanganligi.

Pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» mazmunida o'z ifodasini topgan ta'limiy qadriyatlardan yana biri - sababiylik omili va unga yangicha yondashuv iisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchiga pedagoglik kasbining ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish, shuningdek, uning shaxsiy va kasbiy imkoniyatlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlash zarurdir.

Sababiylik omillari shaxsni faoliyatga chorlaydi, uning faoliyati va harakatlarini boshqaradi. Sub'ektning jamoadagi o'rne hamda ijtimoiy munosabatlarining mazmuni, xulq-atvori, xarakteri, shuningdek, atrofdagilar bilan muloqotlarni tashkil eta olish layoqati asosida qaror topadi. Talabada mustaqil faoliyat yuritish, erkin fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, uni ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishga yo'naltirish kasbiy yetuklik sari olib boruvchi yo'l sanaladi. Ayni vaqtda jahon ta'limi oldida turgan asosiy muammolardan biri talaba (o'quvchi)ni shaxs sifatida shakllantirishdir.

Zamonaviy pedagog kadrlarni tayyorlashda shaxsiy-kasbiy xususiyatga ega bo'lgan quyidagi ta'limiy qadriyatlarni alohida qayd etish maqsadga muvofiqdir:

- o'zini tarbiyalash, muayyan faoliyatni tashkil etish, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini kuzatish, nazorat qilish, aniqlash, ifoda etish, baholash va o'z-o'ziga hisobot berish;

- pedagogik faoliyatning individual xususiyatini namoyon eta olishi (pedagogik amaliyot davrida);

- bo'lajak o'qituvchining o'zi haqidagi tasavvurlari tizimi bo'lgan «Men» konsepsiyasi.

Shaxsiy «Men» obrazi - o'z-o'ziga ko'rsatma hisoblanib, uning mohiyatida quyidagilar aks etadi: shaxsiy sifatlar, qobiliyatlar, tashqi ko'rinishi, o'zini anglash, o'zini hurmat qilish, o'zini yaxshi ko'rish, o'z faoliyatini ijobiy baholash. Ushbu jihatlar shaxsiy tajribaga asoslanuvchi ijtimoiy o'zaro aloqalarning natijasi, shuningdek, shaxs sifatida shakllanishga imkon beruvchi shart-sharoitdir. Shaxsning o'zi haqidagi tasavvuri, «Men»ning idealligi, dinamikligi va hatto fantastik xususiyatga egaligi unda o'z kuchiga ishonchni qaror toptiradi, uni kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etishga undaydi.

Muloqotlar va faoliyat davomida yuzaga keladigan shaxs psixologik qiyofasining muhim elementi bo'lgan «Men»ning tashkil topish sabablari, ijtimoiy-madaniy omillari, faoliyatni tashkil etish jarayonida bo'lajak o'qituvchiga o'z-o'zini kuzatib borish asosida muayyan tartibga solishga, o'z-o'zini anglashga imkon beradi.

«Men» kontsepsiyasi individual xususiyatga ega. Individuallik - insonning boshqalardan ijtimoiy ahamiyatli farqi, psixikasi, shaxsining o'ziga xosligi, uning takrorlanmasligidir.

U shaxs temperamenti, xarakteri, talablari, qiziqishlari va qobiliyatining o'ziga xosligida namoyon bo'ladi. Pedagogik faoliyatning individual uslubi-u yoki bu pedagogik faoliyatning tashkil etilishiga imkon beruvchi usul, metod va vositalarning o'ziga xos tizimidir.

Shaxsning ijtimoiy faolligi asosiy sifatlardan biri bo'lib, u muayyan faoliyatni amalga oshirishda samaradorlikka erishishga imkon beradi. Masalan, turli individual-tipologik xususiyatlarga ega talabalar faoliyat samaradorligiga turli yo'llar bilan

erishadilar. Shuningdek, o'zlarining individual xususiyatlariga tayangan holda ayrim vaziyatlarda muvaffaqiyatlarga ham erishadilar.

O'qituvchi bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi, pedagogik faoliyatni tashkil eta olish layoqatiga egaligi, tarbiyaviy tadbirlarning o'tkazilish jarayonini nazorat qilib turishi, tahlil qilishi va baholab borishi lozim.

Bo'lajak o'qituvchilarda ta'limning yangi konsepsiyasi, shuningdek, didaktik g'oyalar va ularni pedagogik amaliyotda qo'llay olish layoqatini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri sanaladi. Ushbu jarayonda pedagogik faoliyatning ko'rgazmalilik, onglilik, faollik, muntazamlilik, ketma-ketlik, nazariya va amaliyotning uzviyligi, ta'limning umuminsoniy va milliy qadriyatlarga asoslanishi kabi xususiyatlarni namoyon etishiga e'tibor kuchaytiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davidov V.V. Teoriya razvivayushego obucheniya. — M.: MITOR, 1996 g.
2. Doklad mejdunarodnoy komissii po obrazovaniyu dlya XXI veka «Obrazovanie sokritoe sokrovishe». — M.: Izd-vo YUNESKO, 1997 g.
3. Podlasiy I. P. Pedagogika. Noviy kurs. — T. 1,2 — M.: VLADOS, 1999.
4. Mardonov SH. Yangi ta'limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish. — T.: Fan, 2006 y.